

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

YADRO FIZIKASI INSTITUTI

RASULOVA FAZILAT ABDUVALIYEVNA

**GIGANT DIPOL REZONANS DAN YUQORI SOHADA SELEN
IZOTOPLARIDA FOTOYADRO REAKSIYALARI KESIMLARI**

01.04.08 – Atom yadrosi va elementar zarrachalar fizikasi. Tezlashtiruvchi texnika

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on physical and mathematical sciences**

Rasulova Fazilat Abduvaliyevna

Gigant dipol rezonansdan yuqori sohada selen izotoplarida fotoyadro
reaksiyalari kesimlari.....3

Расулова Фазилат Абдувалиевна

Сечения фотоядерных реакций на изотопах селена в области выше
гигантского дипольного резонанса.....23

Rasulova Fazilat Abduvalievna

Cross sections of photonuclear reactions on selenium isotopes above
the giant dipole resonance.....43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works47

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

YADRO FIZIKASI INSTITUTI

RASULOVA FAZILAT ABDUVALIYEVNA

**GIGANT DIPOL REZONANS DAN YUQORI SOHADA SELEN
IZOTOPLARIDA FOTOYADRO REAKSIYALARI KESIMLARI**

01.04.08 – Atom yadrosi va elementar zarrachalar fizikasi. Tezlashtiruvchi texnika

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/FM981 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yadro fizikasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.inp.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Behzod Sadiqovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor, akademik

Rasmiy opponentlar:

Artemov Sergey Viktorovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Polvonov Satimboy Rajapovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. tel. (+99871) 289-31-41; faks (+99871) 289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, YaFI. tel. (+99871) 289-31-19.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ da tarqatildi.
(2024-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Yu.Tashmetov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, f.-m.f.d., professor

O.R.Tojiboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f. PhD,
katta ilmiy xodim

E.M.Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi vaqtda fotoyadro reaksiyalarini tadqiq qilish atom yadrosi xususiyatlari va tuzilishi to'g'risida ma'lumot beruvchi muhim manba bo'lib qolmoqda. Selenning tabiiy izotoplaridagi fotoyadro reaksiyalarini nazariy va eksperimental o'rganish $70 < A < 90$ massa sonlari sohasining sferik yadrolardan deformatsiyalangan shaklga o'tish xarakterini tavsiflashga imkon beradi. Shuningdek, γ -kvantlarning yadrolar bilan o'zaro ta'sirlashuvi turli mexanizmlari hissalarining energiya ortishi bilan, xususan, gigant dipol rezonansi (GDR) dominant bo'lmagan sohada qayta taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega. Fundamental jihatlar bilan bir qatorda selen izotoplarida fotoyadro reaksiyalarini o'rganish ularning yulduzlar nukleosintezi jarayonlaridagi rolini yoritishda, elektron tezlatkichlardan tormozlanish nurlari yordamida yadro tibbiyoti uchun istiqbolli mishyak radioizotoplarini olish usullarini ishlab chiqishda muhimdir.

Dunyoning ilmiy markazlarida selen izotoplarida GDR sohasida (γ, n) , $(\gamma, n)^m$, $(\gamma, n) + (\gamma, np)$ va $(\gamma, 2n)$ turdagi reaksiyalar kesim qiymatlari bo'yicha yetarlicha ko'p eksperimental ma'lumot mavjud. Selen izotoplarida fotoneutron reaksiyalari kesimlarining keskin farq qilishi GDR parchalanishining (γ, n) va (γ, p) kanallari o'rtasidagi kuchli raqobatni ko'rsatadi. GDRning protonlar chiqishi bilan parchalanishi (γ, p) reaksiya kesimining kichikligiga qaramasdan izospinning kengayish ta'sirini o'rganishga imkon beradi. 20 MeVdan yuqori energiya sohasida yangi ma'lumotlar olish va mavjud ma'lumotlarning aniqligini oshirish fotoyadro reaksiyalarini eksperimental o'rganish sohasidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Respublikamizda yadro texnologiyalarining fan va ishlab chiqarishga tatbiq etilish sohalarida fundamental hamda amaliy tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz fani va uning amaliyotda tatbiqining rivoji uchun muhim ahamiyatga ega mazkur fundamental tadqiqot yo'nalishlari Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyalarida¹ o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 19-iyuldagi PF-5484-son "O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonlari, 2019-yil 7-fevraldagi PQ-4165-son "2019-2029-yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 16-oktabrdagi PQ-4492-son "O'zbekiston Respublikasining yadro-energetika dasturi uchun kadrlar salohiyatini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4526-son "Yadro fizikasi instituti ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari hamda ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energetika, energiya tejamkorligi va muqobil energiya manbalari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tabiiy selen izotoplarida fotoyadro reaksiyalarining tadqiqotlari bilan dunyoning yetakchi ilmiy markazlarining ko‘plab olimlari hamda mutaxassislari, shu jumladan, fransiyalik (P.Carlos, H.Beil, R.Bergere, J. Fagot, A.Lepretre, A.Veyssiere), amerikalik (S.A.Yates, C.R.Howell, S.M.Grimes), koreyalik (H.Naik, G.N.Kim, K.Kim, M.Zaman, M.Sahid, S.C.Yang), yaponiyalik (F.Kitatani, H.Harada, S.Goko, H.Utsunomiya, H.Akimune, T.Kaihoru, H.Toyokawa, K.Yamada, A.Makinaga), rossiyalik (A.M.Goryachev, G.N.Zalesniy, V.V.Varlamov, A.G.Belov, Yu.P.Gangrskiy, A.D.Antonov, A.P.Tonchev, N.P.Balabanov, R.A.Aliev, A.A.Kuznetsov), ukrainalik (V.M.Mazur, I.V.Sokolyuk, Z.M.Bigan, I.N.Vishnevskiy, V.I.Jeltonojskiy, E.V.Kulich, A.N.Savrasov), vyetnamlik (Tran Duc Thiep, Truong Thi An, Nguyen Tuan Khai, Nguyen The Vinh, Phan Viet Cuong), o‘zbekistonlik (S.R.Polvonov, F.Sh.Xamrayev, E.M.Shomurodov, E.A.Zaparov, B.S.Mazitov, V.G.Ulanov) va boshqa mutaxassislar shug‘ullanishadi.

Mazkur eksperimentlarda tormozlanish γ -nurlanishi, tezlashtirilgan pozitronlar annigilyatsiyasida hosil bo‘lgan kvazimonoenergetik fotonlar va elektronlar nurida lazer fotonlarining teskari Kompton sochilishida, 10-28 MeV energiya sohasida selen izotoplarida (γ, n) , $(\gamma, n)^m$, $(\gamma, n)^+$ (γ, np) va $(\gamma, 2n)$ turdagi reaksiyalar kesimlari bo‘yicha ma’lumot olingan.

Adabiyotda selen izotoplarida fotoproton reaksiyalarining kesimlari bo‘yicha eksperimental ma’lumotlar yo‘q. Bu ma’lumotlarning mavjudligi GDRning izospin kengayish konsepsiyasini tekshirish va mazkur energiya sohasida fotoyadro reaksiyalari chiqishi va kesimlarining energiyaga bog‘liqligini o‘rganish imkonini beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4526-sonli qarori asosida 2020-2024-yillarga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari dasturi yuzasidan “Atom energetikasi sohasidagi tadqiqotlar, radioizotoplar olish texnologiyalarini ishlab chiqish va yadro texnologiyalarini joriy etish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi selen stabil izotoplarida fotoyadro reaksiyalarining ekvivalent kvantga mos eksperimental kesim qiymatlarini olish va gigant dipol rezonansdan yuqori sohada kesimning energiyaga bog‘liqligidan reaksiyalar asosiy mexanizmlarini o‘rnatishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

RM-55 Moskva davlat universiteti qoshidagi Yadro fizikasi ilmiy-tadqiqot instituti mikrotroni hamda Birlashgan yadro tadqiqotlari institutidagi Yadro muammolari laboratoriyasi (Dubna) LINAC-200 chiziqli tezlatkichidan

tezlashtirilgan elektronlar energiyasi 20, 40, 55, 60 va 80 MeV bo'lgan tormozlanish nurlanishi yordamida tabiiy selen namunalarini nurlantirish;

Geant4 dasturiy paketidan foydalangan holda tezlashtirilgan elektronlar energiyasi 20, 40, 55, 60 va 80 MeV tormozlanish nurlanishi spektrini konvertor-nishon uchun hisoblash;

tabiiy selen izotoplarida γ -spektroskopik usulda fotoyadro reaksiyalar mahsulotlarining izotopik tarkibini aniqlash;

tabiiy selen izotoplarida tormozlanish nurlanishining 20-80 MeV chegaraviy energiya diapazonida fotoyadro reaksiyalarining ekvivalent kvantga mos kesimlarini o'lchash;

tabiiy selen izotoplarida fotoyadro reaksiyalari ekvivalent kvantga mos kesimlarining uyg'onish energiyasiga bog'liqligini aniqlash;

fotoyadro reaksiyalarining ekvivalent kvantga mos kesimini TALYS-1.96 paket kodi va fotoyadro reaksiyalarining kombinirlangan modeli (FRKM)dan foydalangan holda hisoblash, olingan ma'lumotlarni eksperiment natijalari bilan taqqoslash;

olingan natijalarni nazariy bashoratlar bilan taqqoslab tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tabiiy selen izotoplari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida tabiiy selen izotoplarida fotoyadro reaksiyalari ekvivalent kvantga mos kesimlari sanaladi.

Tadqiqotning usullari: kiritilgan aktivlik metodi, gamma-spektrometriya, TALYS, Geant4 va FRKM dasturlari yordamida kompyuter modellashirishi hamda hisoblashlar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor 20, 40, 55, 60 va 80 MeV chegaraviy energiyali tormozlanish nurlanish maydonida tabiiy selen nishonini nurlantirganda $^{73g,73m,75,81g,81m}\text{Se}$ va $^{71-74,76-79}\text{As}$ yadrolarining hosil bo'lishiga olib keladigan (γ, xn) va (γ, pxn) reaksiyalarining ekvivalent kvantga mos eksperimental kesim qiymatlari olingan;

$^{76-79}\text{As}$ izotoplarining hosil bo'lishiga olib keladigan (γ, pxn) reaksiyalari ro'y berishida asosiy mexanizm – fotoyadro reaksiyalarining kombinirlangan modeli doirasida tavsiflanadigan izospin kengayish effekti ekanligi aniqlangan;

ilk bor 20 MeV energiyada $^{74,77,78,80}\text{Se}$ izotoplarida (γ, p) reaksiyasi kesimining eksperimental qiymati olingan va massa soni ortishi bilan (γ, p) reaksiya kesimi kamayishida eksponensial bog'liqlik o'rnatilgan;

ilk bor $^{82}\text{Se}(\gamma, n)^{81m, g}\text{Se}$ reaksiya izomer chiqishlar nisbati d ning uyg'onish energiyasiga bog'liqligi 20 MeVdan yuqori energiyalarda $\langle d \rangle = 0,60 \pm 0,08$ to'yinish sohasi bilan tavsiflanishi o'rnatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Geant4 dasturidan foydalanib, RM-55 va LINAC-200 tezlatkichlarining volfram konvertorlarida hosil bo'lgan elektronlarning tormozlanish nurlanishi spektrlari hisoblangan;

TALYS va FRKM dasturiy kodlar hamda Zeltser-Berger jadvallardan foydalanib 0-100 MeV energiya diapazonida fotoneutron (γ, xn) va fotoproton (γ, pxn) reaksiyalari uchun ekvivalent kvantga mos kesim qiymatlari hisoblangan;

$^{73g,73m}\text{Se}$ va $^{73,74}\text{As}$ yadrolari hosil bo'lishiga olib keladigan reaksiyalar uchun 30 MeVdan 80 MeVgacha energiya oralig'ida ekvivalent kvantga mos kesimning uyg'onish energiyasiga bog'liqligida kvazideytron mexanizmining hissasi bilan bog'liq chiziqli o'sish o'rnatilgan;

$^{73g,73m}\text{Se}$ va $^{73,74}\text{As}$ yadrolari hosil bo'lishiga olib keladigan reaksiyalar uchun ekvivalent kvantga mos kesimlari bog'liqliklarida 40 MeVdan 80 MeVgacha energiya oralig'ida to'yinish tendensiyasi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Natijalarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, gigant dipol rezonansdan yuqori sohada selen stabil izotoplaridagi fotoyadro reaksiyalari to'g'risida olingan eksperimental natijalar GDR izospin kengayishi, kvadrupol rezonans uyg'onishi va kvazideytron mexanizm kabi fotoyadro reaksiyalari mexanizmlarini tavsiflashga qaratilgan nazariy yondashuvlarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Chetlab o'tilgan ^{74}Se yadrosining fotoyadro reaksiyalari hisobiga hosil bo'lish va parchalanish imkoniyatini yulduzlar nukleosintezi kartinasini qurishda hisobga olish kerakligi muhim natija hisoblanadi. Eksperimental ma'lumotlar fotoyadro reaksiyalari bo'yicha yadroviy ma'lumotlar bazalarida EXFOR (CSISRS) (MAGATE) mavjud bo'lgan ma'lumotni to'ldirishi mumkin. Natijalarning amaliy ahamiyati ^{72}As , ^{74}As , ^{76}As va ^{77}As tibbiy izotoplarini ishlab chiqarish uchun elektron tezlatkichlardan foydalanish imkoniyatini baholash bilan aniqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi energiya bo'yicha yuqori ajrata olish qobiliyatiga ega yarimo'tkazgichli detektorlarni va apparatura spektrlarini matematik qayta ishlash zamonaviy metodlarini qo'llash; tormozlanish nurlanishi spektrlarini sonli modellashtirish uchun umum tan olingan ishonchli dasturiy paket Geant4 dan foydalanish; eksperimental ma'lumotlarning TALYS va FRKM dasturiy kodlar yordamida bajarilgan hisoblar bilan taqqoslama tahlili to'g'riligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gigant dipol rezonansdan yuqori sohada selen izotoplarida fotoyadro reaksiyalarini o'rganish bo'yicha olingan natijalarga asoslanib:

20, 40, 55, 60 va 80 MeV chegaraviy energiyali tormozlanish nurlanish maydonida tabiiy selen nishonini nurlantirganda $^{73g,73m,75,81g,81m}\text{Se}$ hamda $^{71-74,76-79}\text{As}$ yadrolarining hosil bo'lishiga olib keladigan reaksiyalarning ekvivalent kvantga mos kesim qiymatlari hamda ularning tahlili bo'yicha nazariy yondashuvlar Birlashgan yadro tadqiqotlari institutining Yadro reaksiyalari laboratoriyasida 04-5-1131-2017/2023 "Tezlashtirilgan og'ir ionlar nurlari bo'yicha radiatsiyaviy-fizikaviy, radiokimyoviy va nanotexnologik tadqiqotlar" mavzusi doirasida qo'llanilgan (Birlashgan yadro tadqiqotlari institutining 2023-yil 4-dekabrdagi №500-26/80-sonli xati). Natijalardan foydalanish turli uyg'onish energiyalarida fotoyadro reaksiyalari mexanizmini tavsiflash va tushuntirish imkonini bergan;

$^{76-79}\text{As}$ izotoplarining hosil bo'lishiga olib keladigan fotoproton reaksiyalari ro'y berishida asosiy mexanizm izospin kengayish effekti ekanligi to'g'risidagi tasdiq Birlashgan yadro tadqiqotlari institutining Yadro reaksiyalari laboratoriyasida ishlatilgan (Birlashgan yadro tadqiqotlari institutining 2023-yil 4-dekabrdagi №500-

26/80-sonli xati). Natijalardan foydalanish gigant dipol rezonansi parchalanish mexanizmini interpretatsiyalash imkonini bergan;

eksperimental usulda 20 MeV energiyada aniqlangan $^{77,78}\text{Se}$ izotoplarida (γ, p) reaksiyalari kesim qiymatlari Birlashgan yadro tadqiqotlari institutining Yadro reaksiyalari laboratoriyasida MT-25 mikrotron va loyihalashtirilgan chiziqli elektron tezlatkichlarda ishlatilgan (Birlashgan yadro tadqiqotlari institutining 2023-yil 4-dekabrda №500-26/80-sonli xati). Natijalardan foydalanish yadroviy tibbiyot uchun mishyak radioizotoplarini fotoyadroviy usul yordamida radiokimyoviy ishlab chiqarish imkoniyatlarini baholash imkonini bergan;

gigant dipol rezonansdan yuqori sohada olingan $^{82}\text{Se}(\gamma, n)^{81m,g}\text{Se}$ reaksiya izomer chiqishlar nisbati Birlashgan yadro tadqiqotlari institutining Yadro reaksiyalari laboratoriyasida ishlatildi (Birlashgan yadro tadqiqotlari institutining 2023-yil 4-dekabrda №500-26/80-sonli xati). Natijalardan foydalanish energiyaning keng diapazonida izomer holatlar hosil bo'lish mexanizmini interpretatsiyalash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 8 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shulardan, 2 tasi xorijiy jurnallarda.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 113 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi yoritilib, o'tkazilgan tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi hamda muammoning o'rganilganlik darajasi belgilangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyektlari, subyektlari va usullari haqida ma'lumot berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliliigi asoslangan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amalga oshirish, ishni sinovdan o'tkazish, shuningdek, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Selen izotoplaridagi fotoyadro reaksiyalari bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar”** deb nomlangan birinchi bobida fotoyadro reaksiyalari sohasida nazariy va eksperimental tadqiqotlarning holati kengaytirilgan tahlili keltirilgan. Tabiiy selen aralashmasi izotoplaridagi fotoyadro reaksiyalari bo'yicha eksperimental tadqiqotlar tormozlanish γ -nurlanishi, annigilyatsion ($e^+ + e^- \rightarrow 2\gamma$) γ -nurlanish va teskari kompton γ -nurlanishidan foydalangan holda 10 dan ~ 28 MeV gacha bo'lgan uyg'onish energiyasi sohasida amalga oshirilgan.

Adabiyotda selen izotoplarida fotoyadro reaksiyalarining kesimlari bo'yicha 28 MeVdan yuqori energiya sohasida eksperimental ma'lumotlar mavjud emas, ular asosida TALYS va FRKM dasturiy paketlarga kiritilgan nazariy konsepsiyalarni tekshirish mumkin. Mazkur xulosalar asosida kirish qismida tavsiflangan dissertatsiya maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“RM-55 va LINAC-200 elektron tezlatkichlari tormozlanish nurlanishi oqimida eksperimentlar metodikasi. Tabiiy selen izotoplarida fotoyadro reaksiyalarining kesimlari va chiqishlarini aniqlash”** deb nomlangan ikkinchi bobida MDU YFITI RM-55 mikrotroni va BYTI chiziqli tezlatkichi LINAC-200 xarakteristikallari, tabiiy selen namunalarini nurlantirish sharoitlari, tormozlanish spektrlarini raqamli hisoblash natijalari, gamma-spektrometrik uskunalar va o'rganilayotgan fotoyadro reaksiyalari uchun chiqish hamda kesimlarni hisoblash usullari keltirilgan.

Tabiiy selen namunalari nishonlarini nurlantirish RM-55 mikrotron va LINAC-200 chiziqli tezlatkichlaridan olingan tormozlanish nurlanishi yordamida amalga oshirildi (1-rasmga qarang). Elektron tezlatkichlarning ekspluatatsion xarakteristikallari 1-jadvalda keltirilgan.



1-rasm. RM-55 (chapda) va LINAC-200 (o'ngda) tezlatkichlarning umumiy ko'rinishi


1-jadval

RM-55 va LINAC-200 tezlatkichlarning xarakteristikallari

Xarakteristikalar	RM-55	LINAC-200
Ish rejimi	uzluksiz	impulsli
Elektronlarning chiqishdagi maksimal energiyasi (MeV)	55	200
Maksimal energiyada oqim toki, mA	10	40
Impuls davomiyligi	8	0,1 – 3,5
Impulslar chastotasi (Hz)	50	1 - 25
Konvertor (qalinlik, mm)	W (0.2)	W (5)


RM-55 elektron tezlatkichda nishon sifatida shaffof plastikli konteynerga joylashtirilgan kukun ko'rinishidagi tabiiy selen (SeO_2 , $\rho=3.95 \text{ g/sm}^3$) ishlatildi.

Tezlatkich toki kalibrovkasi monitor nishonidagi $^{65}\text{Cu}(\gamma, n)^{64}\text{Cu}$ reaksiya uchun eksperimental o'lchangan va nazariy hisoblangan chiqish kattaliklarini taqqoslash yordamida amalga oshirildi. Kalibrovka aniqligi 5 %ni tashkil etdi. LINAC-200 tezlatkichida 227,9, 312, 155,7 va 145,8 massali folga ko'rinishidagi selen metali ($\rho=4.79 \text{ g/sm}^3$) nishonlari mos holda 20, 40, 60 va 80 MeV energiyada nurlantirildi. Elektronlar toki kattaligi va stabilligi yuqori sezuvchan tok qayd qilgich yordamida o'lchandi. Volfram konvertorga kelib tushgan elektronlar soni $\pm 10 \%$ aniqlikda baholandi. Tormozlanish nurlanishi spektri Monte-Karlo metodi asosida Geant4 dasturiy paketi yordamida modellashirildi (2-rasm).



2-rasm. 20 (1), 40 (2), 55 (3), 60 (4) va 80 MeV (5) energiyali elektronlar uchun 5 mm qalinlikdagi volfram tormozlanish nishoniga tushayotgan bitta elektronga to'g'ri keluvchi tormozlanish fotonlari taqsimotining zichligi

Nurlantirilgan nishonlar γ -kvantlar spektri 50 keVdan 3.7 MeVgacha bo'lgan energiya diapazonida hajmi 145 sm^3 bo'lgan o'ta toza germaniyli detektor CANBERRA GC3018 yordamida o'lchandi. Detektorning energiya va effektivlik bo'yicha kalibrovkasi namunaviy spektrometrik gamma-manbalar komplektiga kiruvchi standart γ -nurlanish manbalari ^{22}Na , ^{54}Mn , ^{57}Co , ^{65}Zn , ^{88}Y , ^{113}Sn , ^{133}Ba , ^{139}Ce , ^{152}Eu , ^{207}Bi va ^{241}Am yordamida o'tkazildi. Detektorning energiya bo'yicha ajrata olish qobiliyati $E_\gamma=122 \text{ keV}$ va 1332 keV energiyada mos holda 0.8 keV hamda 1.76 keV ni tashkil etdi. Hosil bo'lgan reaksiya mahsulotlari γ -chiziqlar energiyasi va intensivligining kamayishi bo'yicha identifikatsiyalandi. 3-rasmda tabiiy selen izotoplari nurlantirilgan namunalar nurlantirishdan keyin 20 daqiqa (yuqorida) va 4 soatdan keyingi (pastda) qoldiq aktivlik spektrlari keltirilgan. Spektrlarni qayd qilish davomiyligi mos ravishda 10 daqiqa va 1 soatni tashkil etdi. Nurlantirishda foydalanilgan tormozlanish nurlanishi chegaraviy energiyasi 80 MeVni tashkil etdi.



3-rasm. Nurlantirilgan selen namunalaring gamma-spektrlari

Reaksiya eksperimental chiqish kattaligi $Y(E_{\gamma\max})_{\exp}$ qoldiq faollik spektrlaridagi detektorning samarasiz vaqti, nurlantirilgan selen namunalari identifikatsiyalangan gamma-chiziqlar fotopiklari yuzasi S , nurlantirish davomida tezatkich oqimi hamda reaksiya mahsuloti parchalanishi kanallarini hisobga olgan holda aniqlandi:

$$Y(E_{\gamma\max})_{\exp} = \frac{S \cdot C_{abs} \cdot t_{real}}{\varepsilon_p \cdot I_{\gamma}} \cdot \frac{1}{t_{live}} \cdot \frac{1}{N} \cdot \frac{1}{N_e} \cdot \frac{e^{\lambda \cdot t_{cool}}}{1 - e^{-\lambda \cdot t_{real}}} \cdot \frac{\lambda \cdot t_{irr}}{1 - e^{-\lambda \cdot t_{irr}}} \quad (1)$$

bu yerda S – pik yuzasi, ε_p – detektor effektivligi, I_{γ} – γ -nurlanish ehtimolligi, C_{abs} – namunada γ -nurlanishning yutilishiga tuzatma, t_{real} va t_{live} – mos holda real va samarali o'lchash vaqti, N – aktivatsion namunadagi atomlar soni, N_e – volfram konvertorga kelib tushayotgan elektronlarning umumiy soni, λ – parchalanish doimiysi, t_{cool} – sovish vaqti va t_{irr} – nurlantirish vaqti.

Tabiiy izotoplar aralashmasida chiqish kattaligini eksperimental o'lchash natijasi tabiiy aralashmadagi barcha mumkin bo'lgan reaksiyalarda izotop hosil bo'lishi chiqishi sifatida aniqlanadi:

$$Y(E_{\gamma\max})_{\exp} = \sum_i \eta_i \int_{E_{th}}^{E_{\gamma\max}} W(E, E_{\gamma\max}) \sigma_i(E) dE \quad (2)$$

bu yerda i indeksi o'rganilayotgan izotop hosil bo'lishiga hissa qo'shadigan reaksiya soniga to'g'ri keladi, η_i – selen izotoplarining tabiiy aralashmasidagi o'rganilayotgan izotopning ulushi, $E_{\gamma\max}$ – konvertorga tushayotgan elektronlarning chegaraviy energiyasi, $E_{i,th}$ – o'rganilayotgan fotoyadro reaksiyasining ostona energiyasi, $\sigma_i(E)$ – TALYS va FRKM yordamida hisoblangan mos keladigan fotoyadro reaksiyasi kesimi, $W(E, E_{\gamma\max})$ – bitta elektronga mos keluvchi tormozlanish fotonlari sonining energiya bo'yicha taqsimoti, E – konvertorda hosil bo'lgan tormozlanish γ -kvantlar energiyasi.

Elektronlarning tormozlanish nurlanishi maydonida o'tkazilgan eksperimentlarning asosiy kamchiligi – fotoyadro reaksiyasi chiqish kattaligining o'rganilayotgan reaksiya kesimiga $\sigma(E)$ va shu bilan bir vaqtda yetarli darajada aniq bo'lmagan tormozlanish nurlanishi spektri $W(E, E_{\gamma\max})$ ning shakliga bog'liqligidir. Tormozlanish oqimlarida turlicha geometriyada amalga oshirilgan eksperimentlarda tormozlanish fotonlari oqimining bir-biridan farqli bo'lishi hisobiga fotoyadro reaksiyalar absolyut chiqishi ham o'zaro farq qiladi. Turli eksperimentlar natijalarini to'g'ri tahlil qilish va o'zaro solishtirish uchun reaksiya chiqish kattaligini quyidagi formula bo'yicha aniqlanadigan ekvivalent kvantlar soniga normallashtirish kerak:

$$N = \frac{1}{E_{\gamma\max}} \int_0^{E_{\gamma\max}} E \cdot W(E, E_{\gamma\max}) dE \quad (3)$$

Tormozlanish spektri shaklining o'zgarmasligi to'g'risidagi farazni hisobga olgan holda $W(E, E_{\gamma\max})$ funksiyasi sifatida tormozlanish fotonlarining hosil bo'lish kesimini $\sigma(E, E_{\gamma\max})$ olish kerak. Tabiiy izotoplar aralashmasi holatida ekvivalent kvantga mos kesim dastlabki yadrolarning foizini hisobga olgan holda yakuniy izotop hosil bo'lishida hissa qo'shishi mumkin bo'lgan kanallarni o'z ichiga oladi:

$$\sigma_q = \frac{\sum_i \eta_i \int_{E_{th_i}}^{E_{\gamma max}} \sigma_i(E) \sigma(E, E_{\gamma max}) dE}{\frac{1}{E_{\gamma max}} \int_0^{E_{\gamma max}} E \cdot \sigma(E, E_{\gamma max}) dE} \quad (4)$$

bunda $\sigma(E, E_{\gamma max})$ Zeltser-Berger jadvallari asosida hisoblanadi.


(4) formuladan ko‘rinib turibdiki, ekvivalent kvantga mos kesim reaksiya kesimi σ_i va tormozlanish chegaraviy energiyasi $E_{\gamma max}$ ga bog‘liq. Reaksiya kesimini hisoblash TALYS va FRKM kodlari yordamida amalga oshirildi. TALYS dasturida umumiy fotoyutilish kesimi σ_{abs} GDR kesimi σ_{GDRn} ing kvazideytron fotoparchalanish kesimi σ_{QD} bilan yig‘indisi sifatida aniqlanadi:

$$\sigma_{abs}(E_{\gamma}) = \sigma_{GDR}(E_{\gamma}) + \sigma_{QD}(E_{\gamma}). \quad (5)$$

Fotoyadro reaksiyalarining GDR komponentasi, asosan, dipol tebranishlari energiyasini issiqlik bilan ta‘minlash natijasida erishiladigan nishon yadroning kompaund-holatidan nuklonlarning emissiyasi bilan belgilanadi. Kvazideytron fotoparchalanishining hissasi foton energiyasi va neytronlar sonining ortishi bilan ortadi va kamida beshta neytron emissiyasi bilan boradigan reaksiyalar uchun dominant bo‘ladi. FRKM da fotoyutilish kesimi σ_{abs} ni hisoblashda nafaqat GDR va kvazideytron fotoparchalanish mexanizmi σ_{QD} , balki izovektor kvadrupol rezonansi σ_{QR} va GDR obertoni σ_{GDR2} ning ushbu kesimga qo‘shgan hissasi ham hisobga olinadi:

$$\sigma_{abs}(E_{\gamma}) = \sigma_{GDR}(E_{\gamma}) + \sigma_{IVQR}(E_{\gamma}) + \sigma_{GDR2}(E_{\gamma}) + \sigma_{QD}(E_{\gamma}) \quad (6)$$


Fotoyadro reaksiyalarining statistik tavsifidan foydalanadigan standart dasturlardan farqli ravishda FRKM da izospin effektlarining GDR parchalanishiga ta‘siri hisobga olinadi. $N \neq Z$ yadrolarida elektr dipol γ -kvantlarining yutilishida ikkita GDR sathlari qo‘zg‘aladi: $T_{<} = T_0$ va $T_{>} = T_0 + 1$, bu yerda $T_0 = |N-Z|/2$. 4-rasmda GDR $T_{<}$ va $T_{>}$ izospin komponentlarining dastlabki yadrodagi (N, Z) qo‘zg‘alishlari va ularning proton $(N, Z-1)$ va neytron $(N-1, Z)$ kanallari bo‘ylab parchalanishi ko‘rsatilgan. 4-rasmdan ko‘rinib turibdiki, GDRning $T_{>} = T_0 + 1$ izospinli qo‘zg‘atilgan holatlarining neytron emissiyasi bilan $T = T_0 - 1/2$ izospinli pastki holatlarga parchalanishi taqiqlangan, bu esa (γ, p) kanalning kuchayishiga olib keladi hamda yadro (N, Z) uchun (γ, p) reaksiya kesimi maksimumining (γ, n) reaksiya kesimiga nisbatan yuqori energiyalarga siljishiga olib keladi.



4-rasm. GDR $T_<$ va $T_>$ izospin komponentlarining dastlabki yadro (N, Z) dagi qo‘zg‘alishlari va ularning proton $(N, Z-1)$ va neytron $(N-1, Z)$ kanallari bo‘ylab parchalanish sxemasi

Dissertatsiyaning “**Selen izotoplaridagi fotoyadro reaksiyalari ekvivalent kvantga mos kesimining uyg‘onish energiyasiga bog‘liqligini tadqiq qilish natijalari**” deb nomlangan uchinchi bobida o‘rganilayotgan fotoyadro reaksiyalari uchun TALYS va FRKM dasturiy kodlar hamda Zeltser-Berger jadvallaridan foydalanib 0-100 MeV energiya diapazonida fotoneytron (γ, xn) va fotoproton (γ, pxn) reaksiyalari uchun hisoblangan hamda eksperimental aniqlangan ekvivalent kvantga mos kesim qiymatlari berilgan.


TALYS dasturida yadroda sodir bo‘ladigan barcha reaksiyalar va holatlar orasidagi o‘tishlarning kesimlari hisoblanadi, ya’ni izomer holatlar hosil bo‘lishi bilan boradigan reaksiyalarning kesimlarini aniqlash mumkin. Dipol fotonlarining ^{82}Se yadrosi tomonidan yutilishi GDR spin-juftligi 1^- bo‘lgan uyg‘ongan holat qo‘zg‘alishiga olib keladi, izomer holat $J^\pi = 7/2^+$ va asosiy holat $J^\pi = 1/2^-$ orasidagi spinlar farqi esa kattaroq. 5-rasmda $^{82}\text{Se}(\gamma, n)^{81m,g}\text{Se}$ reaksiya chiqishi izomer nisbatining energiyaga bog‘liqligining hisoblash (TALYS dasturi bo‘yicha) va eksperimental natijalar keltirilgan. Qaralayotgan energiya sohasida TALYS dasturi bo‘yicha hisoblashlar eksperimental ma’lumotlarni qoniqarli darajada tavsiflaydi. $^{81m}\text{Se}/^{81g}\text{Se}$ energetik bog‘liqligida 20 MeVdan yuqori sohada $\langle d \rangle = 0,60 \pm 0,08$ qiymatli to‘yinish kuzatilmoqda. Izomer nisbat reaksiya ostona energiyasidan ~ 20 MeV energiya qiymatiga qadar o‘sadi, bu esa uyg‘onish energiyasi ortishi bilan γ -o‘tish kaskadlari soni, shuningdek, kvazi-to‘g‘ri neytronlar tomonidan olib ketilgan momentlar ortishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. ~ 20 MeV energiyada izomer nisbatning energiyaga bog‘liqligining to‘yinganligi metastabil holatlarning paydo bo‘lishiga olib keladigan kaskadlarning paydo bo‘lish ehtimoliga sathlar zichligining yanada oshishining kuchsiz ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.



5-rasm. $^{81m,g}\text{Se}$ yadrolarining izomer nisbatining energiyaga bogʻliqligi


$^{nat}\text{Se}(\gamma, xn)^{73m,g}\text{Se}$, $^{nat}\text{Se}(\gamma, xn)^{75}\text{Se}$ va $^{nat}\text{Se}(\gamma, xn)^{81m,g}\text{Se}$ fotoyadro reaksiyalari.

6-rasmda $^{nat}\text{Se}(\gamma, xn)^{73m,g}\text{Se}$, $^{nat}\text{Se}(\gamma, xn)^{75}\text{Se}$ va $^{nat}\text{Se}(\gamma, xn)^{81m,g}\text{Se}$ fotoneutron reaksiyalari uchun hisoblash hamda eksperimental bogʻliqliklari $\sigma_q(E)$ keltirilgan. FRKM dasturi boʻyicha hisoblash natijalariga koʻra, qaralayotgan energiya sohasida reaksiya mahsulotlari ^{75}Se va $^{81m,g}\text{Se}$ hosil boʻlishida $T_< = \frac{N-Z}{2}$ izospinli holatga parchalanish kanallari hissalari σ_q^{tot} ning shakllanishida dominant rol oʻynaydi. $^{73m,g}\text{Se}$ yadrosi hosil boʻlishida $T_< = \frac{N-Z}{2}$ izospinli holatga parchalanish kanali dominantdir, kvazideytron kanal hissasi QD 40 MeVdan yuqori energiyalarda oʻz hissasini koʻrsata boshlaydi. Boshqa parchalanish kanallarining hissalari qaralayotgan energiya diapazonida hisobga olmas darajada kichik. σ_q oʻlchashda erishilgan aniqlik chegarasida $^{nat}\text{Se}(\gamma, xn)^{73m,g}\text{Se}$, $^{nat}\text{Se}(\gamma, xn)^{75}\text{Se}$ va $^{nat}\text{Se}(\gamma, xn)^{81m,g}\text{Se}$ fotoyadro reaksiyalarining eksperimental bogʻliqligi $\sigma_q^{tot}(E)$ TALYS va FRKM dasturlari hisoblash natijalari bilan mos keldi.



6-rasm. $^{73(m+g)}, ^{75}, ^{81(m+g)}\text{Se}$ yadrolari hosil bo'lishiga olib keladigan fotoneytron reaksiyalari $^{\text{nat}}\text{Se}(\gamma, xn)$ uchun hisoblash (chapda) hamda eksperimental (o'ngda) $\sigma_q(E)$ bog'liqliklari. Ochiq kvadratlar – Goryachev guruhi natijalari, qora kvadratlar – bizning natijalarimiz


$^{71-74}\text{As}$, $^{76-79}\text{As}$ yadrolari hosil bo'lishiga olib keladigan $^{\text{nat}}\text{Se}(\gamma, \text{pxn})$ reaksiyalari. 7, 8 va 9-rasmlarda $^{71,72}\text{As}$, $^{73-76}\text{As}$, $^{77-79}\text{As}$ hosil bo'ladigan fotoproton reaksiyalari $^{\text{nat}}\text{Se}(\gamma, \text{pxn})$ $\sigma_q(E)$ uchun hisoblash (chapda) va eksperimental (o'ngda) bog'liqliklari keltirilgan.




7-rasm. $^{71,72}\text{As}$ yadrolari hosil bo'lishiga olib keladigan $^{\text{nat}}\text{Se}(\gamma, \text{pxn})$ reaksiyalari uchun hisoblash (chapda) va eksperimental (o'ngda) $\sigma_q(E)$ bog'liqliklari

FRKM dasturi bo'yicha hisoblash natijalariga ko'ra σ_q^{tot} shakllanishida qarayotgan uyg'onish energiyasi sohasida $T<$ va $T>$ izospinli holatlarga parchalanish, kvadrupol rezonans (QR), oberton (GDR2) va kvazideytron mexanizm (QD) hissalarini reaksiya mahsulotining massa soniga qarab har xil bo'ladi. Qarayotgan fotoproton reaksiyalari mahsulotlari $^{71-74}\text{As}$, $^{76-79}\text{As}$ uchun $T<$ va $T>$ izospinli holatlarga parchalanish va kvazideytron mexanizmlari katta ehtimollikka ega. Boshqa parchalanish kanallari (QR, GDR2) hissalarini kichik. ^{71}As uchun QD hisssasi qarayotgan uyg'onish energiyasi sohasida dominantdir. $^{72-74,78}\text{As}$ yadrolar holida (QD) hisssasi σ_q^{tot} kattaligiga 60 MeVdan yuqori energiyalarda ta'sir etadi.

$^{76,77,79}\text{As}$ yadrolari uchun σ_q^{tot} katta ehtimollik bilan $T_>$ va $T_<$ izospinli holatlarga parchalanish hisobiga shakllanadi.



8-rasm. $^{73,74,76}\text{As}$ hosil bo'lishiga olib keladigan $^{nat}\text{Se}(\gamma,pxn)$ reaksiyalari uchun hisoblash (chapda) va eksperimental (o'ngda) $\sigma_q(E)$ bog'liqligi



9-rasm. $^{77-79}\text{As}$ hosil bo'lishiga olib keladigan $^{nat}\text{Se}(\gamma, pxn)$ reaksiyalari uchun hisoblash (chapda) va eksperimental (o'ngda) $\sigma_q(E)$ bog'liqligi

σ_q^{tot} kattalikni o'lchashdagi xatoliklar chegarasida FRKM hisoblari qaralayotgan energiya sohasida ^{73}As , ^{78}As va ^{79}As yadrolari uchun $\sigma_q^{tot}(E)$ eksperimental bog'liqligini qoniqarli tavsiflaydi. ^{71}As , ^{72}As izotoplari uchun FRKM va TALYS hisoblari 60 MeVdan yuqori energiyalarda σ_q^{tot} qiymatlarini kattaroq beryapti. ^{76}As , ^{77}As holida FRKM hisoblari kattaroq beryapti, TALYS esa – teskarisi, 40 MeVdan yuqori energiyalarda $\sigma_q^{tot}(E)$ ni kamroq beryapti. σ_q^{tot} uchun hisoblash natijalari va o'lchangan qiymatlarini birgalikda tahlil qilish natijalaridan kelib chiqqan holda, fotoproton reaksiyalarida $\sigma_q^{tot}(E)$ ni tavsiflash uchun FRKM va TALYS hisoblarining qo'llanilishi to'g'risida aniq xulosalar chiqarishga erta hamda hisoblashlarni takomillashtirishni talab qilinadi. Bizning nuqtai nazarimizdan, kvazideytron (QD) parchalanish kanalining ta'sirini kamaytirish yo'llarini izlash FRKM asosida hisoblash natijalari va eksperiment o'rtasidagi farqni kamaytirishga olib keladi.

$^{74,77,78,80}\text{Se}$ izotoplarida (γ, p) reaksiyalari.

20 MeV uyg'onish energiyasida tormozlanish nurlanishining kvazimonoenergetik spektrni hisoblash metodi yordamida $^{74,77,78,80}\text{Se}$ izotoplarida (γ, p) reaksiyalari kesimlari aniqlandi. TALYS va FRKM dasturlari bo'yicha hisoblash natijalari hamda eksperimental aniqlangan kesim qiymatlari 2-jadvalda berilgan.

2-jadval

20 MeV uyg'onish energiyasida $^{74,77,78,80}\text{Se}$ izotoplarida fotoproton (γ, p) reaksiyalarining kesimlari

Reaksiya	Kesim σ , mb		
	Eksperiment	TALYS	FRKM
$^{74}\text{Se}(\gamma, p)^{73}\text{As}$	24.5(29)	23.17	53.3
$^{77}\text{Se}(\gamma, p)^{76}\text{As}$	2.57(13)	2.00	19.3
$^{78}\text{Se}(\gamma, p)^{77}\text{As}$	2.74(18)	0.88	15.5
$^{80}\text{Se}(\gamma, p)^{79}\text{As}$	5.02(45)	0.29	7.8

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, $^{74}\text{Se}(\gamma, p)^{73}\text{As}$, $^{77}\text{Se}(\gamma, p)^{76}\text{As}$ reaksiyalari uchun TALYS hisoblash natijalari eksperimental ma'lumotlar bilan yaxshi mos keladi. $^{78}\text{Se}(\gamma, p)^{77}\text{As}$, $^{80}\text{Se}(\gamma, p)^{79}\text{As}$ reaksiyalari uchun bu hisoblar σ kattalikni kamroq baholaydi. FRKM hisob natijalari qaralayotgan reaksiyalar uchun kesim qiymatlarining yuqori bo'lishini baholaydi.

XULOSA

“Gigant dipol rezonansdan yuqori sohada selen izotoplarida fotoyadro reaksiyalari kesimlari” mavzusidagi falsafa doktori darajasini (PhD) olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagicha xulosalar qilindi:

1. Tormozlanish gamma-nurlanishida kiritilgan aktivlik usuli yordamida murakkab izotopik tarkibga ega bo'lgan obyektlardagi fotoyadro reaksiyalarini muvaffaqiyatli o'rganish mumkinligi ko'rsatildi.

2. Birinchi marta chegaraviy energiyasi 20, 40, 55, 60 va 80 MeV bo'lgan tormozlanish gamma-nurlanishida tabiiy selen nishoni nurlantirilganda $^{73g,73m,75,81g,81m}\text{Se}$ va $^{71-74,76-79}\text{As}$ yadrolarini hosil qiluvchi reaksiyalar uchun eksperimental ekvivalent kvantga mos kesimlar aniqlandi.

3. Fotoneytron (γ, xn) va fotoproton (γ, pxn) reaksiyalarining 0-100 MeV energiya diapazonida TALYS va FRKM dasturi algoritmlaridan foydalangan holda ekvivalent kvantga mos kesimlarning nazariy hisoblash natijalaridan kelib chiqadiki, TALYS dasturi natijalari faqat fotoneytron reaksiyalari uchun eksperimental ma'lumotlar bilan mos keladi. FRKM usuli bo'yicha hisoblash natijalari fotoneytron va fotoproton reaksiyalari uchun eksperimental ma'lumotlar bilan mos keladi.

4. TALYS dasturidan foydalangan holda hisoblash natijalari $^{81m}\text{Se}/^{81g}\text{Se}$ izomer nisbatlarining eksperimental natijalarini qoniqarli tavsiflaydi. $^{81m}\text{Se}/^{81g}\text{Se}$ nisbatining energiyaga bog'liqligida 20 MeVdan yuqori sohada to'yinishi metastabil holatlarning paydo bo'lishiga olib keladigan kaskadlarning hosil bo'lish ehtimolining kamayishi bilan bog'liq. Bu omillar TALYS dasturi algoritmidan hisobga olingan.

5. 20 MeV energiyada $^{74,77,78,80}\text{Se}$ izotoplari uchun (γ, p) reaksiya kesimining eksperimental qiymatlari yadro tibbiyoti uchun mishyak radioizotoplarini fotoyadroviy usulda radiokimyoviy ishlab chiqarish imkoniyatlarini baholashga imkon berdi.

6. FRKM dasturi algoritmlaridan foydalangan holda fotoproton reaksiyalarida GDRning izospin kengayishi konsepsiyasini to'g'ri tekshirish uchun 10-25 MeV energiya oralig'ida eksperimental ma'lumotlar olinishi zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ЯДЕРНОЙ ФИЗИКИ**

ИНСТИТУТ ЯДЕРНОЙ ФИЗИКИ

РАСУЛОВА ФАЗИЛАТ АБДУВАЛИЕВНА

**СЕЧЕНИЯ ФОТОЯДЕРНЫХ РЕАКЦИЙ НА ИЗОТОПАХ СЕЛЕНА В
ОБЛАСТИ ВЫШЕ ГИГАНТСКОГО ДИПОЛЬНОГО РЕЗОНАНСА**

01.04.08 – Физика атомного ядра и элементарных частиц. Ускорительная техника

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.4.PhD/FM981.

Диссертация выполнена в Институте ядерной физики Академии наук Республики Узбекистан. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.inp.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Юлдашев Бехзод Садыкович

доктор физико-математических наук, профессор,
академик

Официальные оппоненты:

Артемов Сергей Викторович

доктор физико-математических наук, профессор

Полвонов Сатимбой Раджапович

доктор физико-математических наук, профессор

Ведущая организация:

Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2024 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 при Институте ядерной физики (Адрес: 100214, г. Ташкент, пос. Улугбек, ИЯФ АН РУз. Тел.: (+99871) 289-31-41; факс: (+99871)289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ядерной физики (регистрационный номер _____) (Адрес: 100214, г. Ташкент, пос. Улугбек, ИЯФ АН РУз. Тел. (+99871) 289-31-19).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2024 г.
(протокол рассылки № _____ от «_____» _____ 2024 г.).

М.Ю.Ташметов

председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

О.Р.Тожибоев

ученый секретарь Научного совета по присуждению
ученых степеней, PhD ф.-м.н,
старший научный сотрудник

Э.М.Турсунов

председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время исследование фотоядерных реакций остается важным источником информации о свойствах и строении атомных ядер. Теоретическое и экспериментальное изучение фотоядерных реакций на природных изотопах селена позволяет описать переходной характер области массовых чисел $70 < A < 90$ от сферических ядер к деформированным. Также важным является перераспределение вкладов различных механизмов взаимодействия γ -квантов с ядрами с ростом энергии, в частности, в той области, где гигантский дипольный резонанс (ГДР) не является доминирующим. Помимо фундаментальных аспектов, изучение фотоядерных реакций на изотопах селена актуально для выяснения их роли в процессах звездного нуклеосинтеза, в возможности наработки перспективных для ядерной медицины радиоизотопов мышьяка на пучках тормозного излучения ускорителей электронов.

В мировых научных центрах имеется довольно обширная экспериментальная информационная база по сечениям реакций типа (γ, n) , $(\gamma, n)^m$, $(\gamma, n) + (\gamma, np)$ и $(\gamma, 2n)$ на изотопах селена в области ГДР. Сильно различающиеся величины сечений фотонейтронных реакций на изотопах селена указывают на конкурирующий характер распада ГДР по каналам (γ, n) и (γ, p) реакций. Распад ГДР с испусканием протонов, несмотря на малое сечение реакции (γ, p) , позволяет изучать эффект изоспинового расщепления. Получение новых данных в области энергий выше 20 МэВ и улучшение точности существующих является одной из актуальных задач в области экспериментального изучения фотоядерных реакций.

В нашей республике большое внимание уделяется фундаментальным и прикладным исследованиям в области внедрения ядерных технологий в науку и производство. Направления этих фундаментальных исследований, имеющих важное значение для развития науки нашей страны и её практического применения, отражены в Стратегии² развития нового Узбекистана на 2022–2026 гг.

Исследования в этой области соответствуют целям и задачам, предусмотренным в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 гг.» от 28 января 2022 года, УП-5484 «О мерах по развитию атомной энергетики в Республике Узбекистан» от 19 июля 2018 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-4165 «Об утверждении Концепции развития атомной энергетики в Республике Узбекистан на период 2019-2029 гг.» от 7 февраля 2019 года, № ПП-4492 «Об утверждении стратегии развития кадрового потенциала для ядерно-энергетической программы Республики Узбекистан» от 16 октября 2019 года и № ПП-4526 «О мерах по поддержке научно

² Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 г.

исследовательской деятельности Института ядерной физики Академии наук Республики Узбекистан» от 21 ноября 2019 года, а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данном направлении.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики II. «Энергетика, энергосбережение и альтернативные источники энергии».

